




ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



AUTHORIAL DISCOURSE AND THE CONDITIONS OF POLYPHONY

Tolqin Pardayev

Lecturer, Department of Foreign Languages

Faculty of Philology

Alfraganus University

E-mail: tolqinpardayev580@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Dynamics, creative concept, polyphony, kindness, sincerity, friendship.

Received: 03.07.26

Accepted: 04.07.26

Published: 05.07.26

Abstract: The integrity of the plot and compositional elements, literary and figurative devices—and indeed every detail—becomes more apparent thanks to the dynamic nature of the author's voice. This is because the elements of literary discourse presuppose an organic connection between word, sentence, and text. While the author acts as a figure organizing reality, the characters' personalities are naturally revealed through their interactions within the work. When discussing authorial voice, it is essential to first clarify the concept of "authorial personality" (or "authorial image"). Specifically, it is precisely the author's acute internal conflicts and constant struggle with self that ensure the integrity of the plot.

MUALLIF NUTQI VA KO‘P OVOZLILIK SHARTLARI

Toʻlqin Pardayev

O'qituvchi

Alfraganus Universiteti

Filologiya fakulteti Xorijiy tillar kafedrası

Email: tolqinpardayev580@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit	soʻzlar:	Dinamika,	ijodiy
konsepsiya,	polifonik,	mehr-oqibat,	
samimiylik,	doʻstlik.		

Annotatsiya: Badiiy syujet va kompozitsiya elementlari, badiiy-tasviriy vositalar, umuman, har qanday detallarning bir butunligi nutq dinamikasida yanada ravshanlashadi. Chunki badiiy nutq

elementlari soʻz, jumla, matn uzviyligini taqozolaydi. Mufallif bir paytning oʻzida ham voqelikni tartiblashtiruvchi, xuddi hukmron kishidek tutishini oʻylaganimizda asardagi qahramonlar muloqotida barcha xarakterlar oʻz-oʻzidan ochila boradi. Muallif nutqi haqida soʻz borganda avvalo, muallif obrazi atamasiga aniqlik kiritib oʻtish joiz deb yoʻlaymiz. Ayniqsa, uning ruhiy-botiniy olamidagi keskin kolliziyalar, oʻz-oʻzi bilan tinimsiz olishuv, syujet yaxlitligini taʼminlashga xizmat qiladi.

АВТОРСКАЯ РЕЧЬ И УСЛОВИЯ ПОЛИФОНИИ

Толқин Пардаев

Преподаватель кафедры иностранных языков

Филологический факультет

Университет Альфраганус

E-mail: tolqinpardayev580@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Динамика, креативная концепция, полифония, доброта, искренность, дружба.	Аннотация: Целостность сюжетной канвы и композиционных элементов, литературно-изобразительных приемов — да и любой детали — становится более очевидной благодаря динамике авторского голоса. Это обусловлено тем, что элементы литературного дискурса предполагают органическую связь между словом, предложением и текстом. В то время как автор выступает в роли фигуры, организующей реальность, характеры персонажей естественным образом раскрываются в ходе их взаимодействия внутри произведения. При обсуждении авторского голоса необходимо прежде всего прояснить понятие «авторской личности» (или «авторского образа»). В частности, именно острые внутренние конфликты и непрестанная борьба автора с самим собой обеспечивают целостность сюжета.
---	---

Kirish. Muallif-roviy obrazi badiiy voqelikni nafaqat boshqaradi, uning tarixiy makon hamda zamonda roʻy berish vaqtini ham belgilab beradi. Bu nimalarda koʻrinadi: birinchidan, muallif obrazi nutq erkin harakatini tizimlashtirsa, polifonik koʻp ovozlilikning ijodiy konsepsiya tigʻizlashuviga katta imkon beradi. Mana shu ikki tamoyil muallif va xarakter oʻrtasidagi

vobsatalikni, “nima demoqchi bo‘lgan muhim” shartlarga jiddiy tayyorlagan fabulaga o‘zgacha pafos singdiradi. “Badiiy matnda anglashilib turuvchi muallif shaxsidir. Muallif shaxsi asar badiiy voqeligiga singib ketadi, chunki badiiy voqelik ijodkor tomonidan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta yaratilgan voqelikdir. Muallif obrazining namoyon bo‘lishi konkret asarning turga mansubligi, janr xususiyatlari bilan bog‘liq. Masalan, dramatik asarda muallif obrazi yo‘qdek, lekin unda tasvirlanayotgan voqeani tanlagan, uni u yoki bu tarzda tasvirlagan muallifning qarashi, nuqtayi nazar, badiiy konsepsiyasi baribir anglashilib turaveradi”. Binobarin, manbadagi asosga tayanadigan bo‘lsak, badiiy tafakkur erkin harakatli bo‘lishi lozim. Unda tarix, bugun, ertangi bo‘lishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar, qahramonlarning taqdiri hal qiluvchi rol o‘ynashi tayin. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘lmas Umarbekovning “Sevgim-sevgilim” qissasida ikkila muhabbatning hayotidan hikoya qiluvchi qissada muallif obrazi bosh qahramon O‘ktam tilidan bayon qilinadi. Qissaga yozuvchi shu qadar shahar va qishloq oralig‘ida kechuvchi voqelikni ifoda etadiki, hayotning har bir lahzasida inson tabiatning inja sirlari, qishloqning oddiy odamlarining dardu tashvishlaridan voqif bo‘lib boradi. Qissada muallif obrazi ana shu ijodiy konsepsiyani makon va zamon oralig‘ida ochilashga erisha olganligini dalolatlaydi.

Shuni qayd etish lozimki, badiiy asardagi muallif obrazi (nutqi)dan kam harakat qilinmaydi. Chunki badiiy voqelikni yaratuvchining muallifning o‘zidir. Bu bilan u xarakterlarni saralashi, qayta ishlashi ham inson fe‘liga to‘g‘ri keluvchi idrok taxayulini muvofiqlashtira boradi. Muallif obrazi har bir badiiy asar arxitektonikasida quruvchining timsoli kabi ish tutadi. “Sevgim-sevgilim” qissasida Samarqandning uzumzorga aylantirish ishlarida amaliyotga o‘tish uchun yuborilgan O‘ktam ismli yigit va Oypopuk ismli qiz taqdiri bayon etilarkan, yozuvchi O‘.Umarbekov juda katat universal tipiklashtirishga diqqatini qaratganligini his etamiz:

“ Men juda erka o‘sgan edim. Onam to‘qqiz yoshligimda zotiljam kasalligidan vafot etgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, otamning menga bo‘lgan munosabatida ikki kishining mehrini his qilardim. Tarbiyamga bu ta‘sir qilmay qolmadi, albatta. Mendagi ikkilanish, hadiksirash kabi illatlar, balki shuning oqibatidir? Sirasini aytganda, bir onadan har xil bola tug‘iladi, deyishadi. Ammo buning hozir kizig‘i yo‘q. Har kim o‘z qilmishlariga o‘zi javobgar bo‘lishi kerak. Shunday qilib, jahlim chiqsa ham otamning ra‘yini qaytarmadim. Institutda menga taklif qilingan joylar orasida «Yakkachinor» nomli kolxoz ham bor edi. Samarqand oblastida, tog‘ning tagida ekan bu kolxoz. Qishloq ham Yakkachinor, deb atalar ekan. Shuni tanladim. Hozir o‘sha yillarni eslasam, institutda qolmaganimga xursand bo‘laman, xursand bo‘lamanu butun hayotimni bir umr og‘ir musibatlarga g‘arq qilganimgan o‘ksinaman... Diplom olgan kunim kechqurun shaharda qolgan o‘rtoqlarim bilan «Toshkent» restoranida quyuq xayrlashib, uyga keldim-da, yo‘l hozirligini ko‘ra boshladim. Samolyot Samarqandga tunda uchishi kerak edi. Xayrlashayotib otam bir oz ko‘z yoshi qilib oldi. Uning qovoqlari salqigan, taram-taram ajin bosgan ozg‘in yuziga qarab, rahmim kelib

ketdi. Lekin nachora? O‘zi ketishimni istagan edi. Tez-tez xat yozib turishga va‘da berib, uydan chiqdim. Ikki soatcha aeroportda sanqib, nihoyat samolyotga o‘tirdim ”.

Keltirilgan lavhada bosh qahramon O‘ktam tilidan tushuntirilayotgan ekspozitsiyada voqelikning keyingi bosqichi Samarqandning “Yakkachinor” qishlog‘ida ro‘y berishga ishora qilinmoqda. Muallif ayni shu nuqtadan turib, joy xronotopini ham tipiklashtiradi. Qissa syujetida muallif obrazi (nutqi) Oypopukning xarakterini shu qadar teran ifodalaydiki, go‘yo sirli-sehrli kartina tomosha qilgandek bo‘ladi kishi. Undagi mehr-oqibat, samimiylik, do‘stlik, olijanoblik tushunchalari ana shu mezonning yangicha ifodasiga yo‘l ochadi. Muallif obrazi – asardagi tabiat tasviriga ham, daryo bo‘ylaridagi xushchaqchaq lahzalarga ham, farzandining baxtini o‘ylab har qanday qiyinchilikka bardosh berishga tayyor otaning ham botinidagi eng teran kechinmalarni ham yuzaga chiqirganini katta mahorat namunasi deb, atash mumkin. Muallifning har bir xatti-harakatida chin insoniy mezonlarning samimiy ibtidosini sezamiz. Muallif hech qachon o‘z qahramonlariga qo‘pol munosabatda bo‘lish u yoqda tursin, ortiqcha detalga o‘rin ham ajratmaydi.

Qissada polifonik nutq tabiati. Nutq shakllari haqida so‘z borganda monolog, dialog, polilog barchasida – inson xatti-harakatining umumlashma xakteri jamlanadi. Qissada O‘ktam kuzatuvchi, baholovchi va tahlil qiluvchi bo‘libgina qolmay, muallif obrazini tashuvchi sifatida ham ishtirok etadi. Unda Oypopukning ruhiy iztiroblari, tuzalmas dard bilan olishuvi, oxirida fojeali yakun topishigacha bo‘lgan vaqt oraliq‘ida mana shu tadrij yuksak darajada kashf qilinadi. Insonning ruhiy-ijtimoiy hayotida tub burilish bo‘lishi, qahramonlarning sirli-sehrli uchrashuvlari, tanishishlari va ayriliq, sog‘inch hissi ustuvor kelgan vaziyatlardagi kolliziyalari qissaning jonli namoyon bo‘lishiga imkon yaratadi. Bu xususiyat ingliz adibi Jon Steynbekning “Sichqonlar va odamlar” qissasida boshqacha rangda yuzaga chiqsa, uning har bir metaforaga boy talqinida polifonik tafakkur sarhadlarining benihoya syujetni yuzaga chiqarishda xronotop maydonini hosil qiladi. Bu xrontop maydon makon va zamonda kechuvchi aralashgan fragment tasvirlarni yodimizga soladi. D.Quronov qayd etishicha: “Badiiy muloqotga kirishayotgan ijodkor representativ, ekspressiv va appelyativ maqsadlarni ko‘zlarkan, asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning ro‘yobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan bo‘lishi lozim. Anglashiladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yuqoridagicha maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik umumiylik bo‘lishi tabiiy”. Ilk bor musiqadan o‘zlashgan atama keyinchalik F.Dostoyevskiy romanlari timsolida yanada tipiklashtirildi. Bunga M.Baxtinning badiiy xrontop shakllari xususida olib borgan monografik tadqiqoti sabab bo‘ldi. D.Quronovning talqinida ushbu uchta mezon o‘zining yagona estetik markazda uyushuvini dalolatlaydi. Bir qarashda, insoniy munosabatlarga darz yetgan vaqtda O‘ktam o‘zini ojiz va notavon his qiladi. Afsus va nadomatlar chekib, hayot haqiqatiga qarshi chiqib bo‘lmas bir taqdir iskanjasida qolib ketganligini teran anglay boradi. Ayniqsa, Oypopukka o‘zi bilmagan holda ruhiy zarbalar, qishloqdan ketib qolish,

ota onaning ray'iga qarash, bir beozor yetimning taqdiri bilan hazillashib bo'lmashlikning ne kuylarga solishini ham kech tushunib yetadi.

Prof.D.Quronov so'z qo'llashdagi normadan og'ishlarda kuzatiluvchi badiiy-estetik maqsadlar quyidagicha umumlashtirishni tavsiya qiladi:

1. Davr ruhini aks ettirish. 2. Joy koloritini berish. 3. Personaj nutqini individuallashtirish. 4. Tasvir predmetiga munosabatni ifodalash .

Ko'rinadiki, yozuvchi O'lmas Umarbekov qissada ana shu to'rtta unurni shu qadar o'rni-o'rni bilan yuzaga chiqaradiki, natijada yozuvchining ijodiy konsepsiyasi asta-sekinlik bilan ko'zga ko'rina boshlaydi. E'tibor berilsa, asar ekspozitsiyasida badiiy nutqning yuzaga chiqish sabab va oqibati – O'ktamning Toshkent shahridan – Samarqand viloyati “Yakkachinor” qishlog'iga amaliyot o'tash uchun yuborilgan voqeligi bilan boshlagan edi. ana shu tadrij qissada arxitektonikani yuzaga chiqaradi. Masalan, A voqelik – B voqelikni ibtidolab kelmoqda. Unda yozuvchi syujetni birdaniga – Samarqand viloyatiga burib yuborishi, O'ktam xarakterining yanada tipiklashuviga kalit vazifasini o'taydi.

Qissada polifonik nutqning yanada o'ziga xos tarzda yuzaga chiqishida joy xrontopining o'rni beqiyosdir. Bu xronotop turi u yerda yashovchi odamlarning maishiy turmushi bilan bir qatorda o'ziga xos urf-odatlarini ham anglashga imkon beradi. Makon va zamonda kechuvchi voqealar silsilasi joy xrontopining ham tarovatini, muallif demoqchi bo'lgan “tushuntirish” modusini inkishof qilishga zamin hozirlaydi:

“Yakkachinor oqshomlarining ham go'zal husni bor. Kun qorayishi bilan butun qishloq qorong'ulik ichiga g'arq bo'ladi. Oltinrang derazalargina bu yerda uylar borligidan darak beradi, xolos. Yarim kechaga borib chirog'lar birin-ketin so'nadi. Shunda dalada bo'lsangiz, olisda, baland qoyaning tepasida oy nuridan barglari mayda-mayda yulduzchalar hosil qilib, qishloq tomonga egilib turgan daraxtni ko'rasiz. Bu yakkachinor. Qishloq shu chinorning nomiga qo'yilgan. Chinorni qishloqning hamma yeridan ko'rish mumkin. Qorong'ilikda u xuddi qo'lini qishloq tomon cho'zib turgan devqomat inson haykaliday tuyuladi. Ba'zi qariyalar serxarxasha bolalarini shu chinor bilan olabo'ji, deb qo'rqitadilar. Lekin sevishganlar uchun esa u abadiy sevgi, vafo timsoli bo'lib tuyuladi. Rivoyatlarga qaraganda, bir cho'pon yigit begona mamlakat malikasini tushida ko'rib, oshiq bo'lib qolibdi. Dard zo'r kelib, qari onasi va oy desa oy, kun desa kundedek yoshgina xotinini tashlab, qishloqdan bosh olib ketibdi. Oradan ko'p yillar o'tibdi. Bir kuu tong mahali tul qolgan bechora juvon ko'za ko'tarib suvga chiqsa, eshik tagida bevafo eri turgan emish. Yigit unga boshidan o'tgan voqealarni gapirib, o'z yurtidan bo'lak yurt yo'qligini, o'z xotinidan ko'hlik ayol yo'qdigini aytibdi va gunohidan o'tishni so'rabdi. Juvon ko'nabdi. Yigit ketibdi. Tog'da makon qilibdi. U kunduzlari hech kimga ko'rinmay qoyalar orasida yotar ekan. Qosh qorayishi bilan baland qoya ustiga chiqib, qishlog'iga, uyiga termilar va gunohidan o'tishni

so‘rab, xudoga iltijo qilar ekan. Keyin u g‘oyib bo‘lib ketibdi. Rivoyatda aytilishicha, chinor shu yigit emish. Yakkachinorning faqat bir tomonga, qishloq tomonga qarab shox otib o‘sganining boisi shu ekan” .

Qissadagi rivoyat syujetning asl mohiyatini ochib berishga, O‘ktamning butun tasavvuri pokiza muhabbati Oypopukning qalbiga singib ketishiga ishora qilinmoqda. Yakkachinor – oshiq yigitning ohu nolasining timsoli ekanligi, mifologik kiritma voqelikka juda katta ma’no jamuljam etilgani fikrimizni oydinlashtiradi. Mana shu mezon qissa poetikasini nafaqat mustahkamlaydi, balki ikkala yoshning fojeali qismatidan so‘z ochishga imkon beradi. O‘ktam – tabiatan yaxshi yigit. U o‘zining fikriga, xushsurat va xush fe‘lligi, odamlar bilan tezda chiqishib keta olish qobiliyatining mavjudligi bilan yozuvchi o‘z ruhiyatini ham xarakterga singdirib yuborganligida deb, qabul qilish lozim. Negaki, badiiy shartlilik shunday murakkab fragmentlarni talab qiladikim, qissadagi har bir ixcham detal tarkibida bir olam manzara yaxlitlashadi. O‘ktam ana shu konsepsiyani tashuvchi obraz. Bu nuqtning monologik, dialogik, polilogik shakllarini ham jimshtirishga, sintetik ko‘rinishda yuazag chiqishiga sharoit yaratadi. Bir qarashda, yozuvchi ikki muhabbatning taqdirini shu qadar iztiroblarga to‘laligicha tasvirlashi sobiq ittifoq davrida talabalar hayotining og‘ir, majburiy mehnatga ko‘mib tashlanishi, ulardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanish zararli oqibatlarini ham qissa mantiqiga singdirib yuborganligida deb tushunish mumkin. Qissadagi har bir epizod, ana shu modifikatsiyani hal qilishga qaratilgani bejiz emas. shuningdek, O‘ktam Samarqand viloyatiga kelishida qilinayotgan amaliyot parda orqasida qolib ketganidek, u yerda asl maqsad odamning taqdiri haqidaligidadir. Chunki inson qanday va qaysi lavozimda ishlamasin, uning o‘sha sohani sevib yaxshi ko‘rib unga xizmat qilishini taqozo etadi:

“ Doktor patnisni menga yaqinroq surib, bir shingil uzum oldi-da, karsillatib chaynar ekan, gapida davom etdi: – Mana, bir yilcha bo‘lib qoldi kelganimga. O‘zim kelganman. Hech kim majbur qilgani yo‘q. Lekin rosa pushaymonman. Kechirasiz, bu gaplarni sizga aytmasligim kerak edi. Yangi odamsiz. Lekin nachora. Manavi chollarga aytolmayman. Bu yerda hech kimga hech nima deyolmayman. Meni begona odam tushunishi mumkin. Men sizga aytsam, zerikish nimaligini shu yerda bildim. Meni cho‘chityapti, deb o‘ylamang, yo‘q. Sizning yo‘lingiz boshqa. Agronom ekansiz. Ertalabdan kechgacha ochiq havoda, dalada bo‘lasiz. Yurasiz, ishlaysiz. Men-chi? Men deraza yonida turli xil sassiq, – doktor aftini burishtirdi, – achchiq dorilarni hidlab, kasal poylashim kerak. Kasal bo‘lmasa nima qilaman? Shaharda bemor doktor izlasa, bu yerda doktor bemor izlaydi”.

Mana shu o‘rinda Bahodir ismli qishloq vrachlik punktida ishlaydigan ygit bilan bo‘lib shtgan o‘zaro suhbat tahlil qilinganda, odamning mehnat qilib ham o‘z rohatiga ishonmaslik vaziyatlari borligini tushunib oladi kishi. Chunonchi, Bahodir hayotning naqadar zerikarli

ekanligini O'ktamga tushuntirib berarkan, bo'lg'usi agronomning nima uchun bu yerlarnitanlaganiga hayron qoladi. Uning kelishiga taajuublanib qaraydi. Hech bir zamonda vaqtning qaysi tomonga qarab o'zgarishini inson bolasi bilmaydi. Nima uchun deganda taqdirdan qochib qutulishning sira iloji yo'qligini tasavvur etish mumkin. Hayotning har bir lahzasidan unumli foydalanish insonning har bir ishni tartibli tashkil qilishi bilan beliganadi. Bahodirning zerikarli hayoti – o'z ustida tinimsiz izlanish olib bormasligidadir. Odamlarning kasal bo'lib qolishini kutib o'tirish emas, o'z xatti-harakati bilan odamlarning ruhiy olamiga vijodnan kirib borishni yozuvchi har ikkala suhbatdosh orasiga antiteza usulida ifodalamoqda. Demak, yozuvchi badiiy nuqtning xronotopga, makonga, zamonga o'rin almashinib turishini, O'ktam va Bahodir timsolida tipiklashtira olganligida yaqqol payqash mumkin. Provard maqsadda ingliz adabiyotidagi dialogik eksperimentlar (ingliz adabiyotida yozuvchining yaratgan qahramonlari dialogik munosabatda ochiqilanadi. Yozuvchi konkret vatqning joriylanishi, obrazlar tizimi, rivoya texnikasi, umuminsoniy motivlar galeriyasi, syujetning o'ziga xosligini tayin etishini yuzaga chiqaradi.) xilma-xil timsollarning yanada teran inkishofiga dalil bo'la oladi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ingliz adibi Jon Steynbekning "Sichqonlar va odamlar" qissasidagi kabi har ikki qahramonning sodda va samimiy qiyofasini o'ziga xos tarzda qiyoslab, tasniflab ko'ramiz:

1. Ingliz adibi yaratgan obrazlar har bir shaxsning individual platformasiga evriladi. Chunki qahramonlar hayotning achchiq qismatini totib, tozarish yo'liga o'tgan adashganlar hisoblanadi.
2. O'zbek adibiyotida qahramon toza va samimiyliги bilan asar syujetida paydo bo'lsa, xatolari keyinchalik fojeali tarzda yakunga yetadi.
3. Ingliz yozuvchisi matndagi voqelikni oqibatdan boshlasa, sababning o'ziga ulash mushkulligini tushuntirmoqchi bo'ladi.
4. O'zbek yozuvchisi sababdan – natijaga tomon siljish tufayli, barkamollik timsoliga qarab yo'l oladi.

Bular sabab va oqibat orasidagi umuminsoniy kategoriya sifatida asar leytmotivini tipiklashuviga olib keladi. Mana shu ikkilik o'rtasida umvdor yashagan O'ktam obrazi qissaning butun hujayralarida xronotop uzviyiligini nazorat qiluvchi personaj sifatida yorqin sahifalarda o'z taqdirini muhrlab boradi. Demak, yozuvchi – Oypopukning o'limi bilan bog'liq xronotopga olib keluvchi yo'lning nechog'li ayanchli bo'lmasin, ana shu diskursning ong va tuyg'udagi aksini to'laonli ifodalashga jazm qilganida qabarib ko'rinadi. Shunga o'xshash yana bir muhim jihat Amerika yozuvchisi Uilyam Folkner ijodining aksariyat qismida mif va zamon masalasi o'zining tajassumini topa olgan. Mif – universal hodisa. O'.Umarbekov shaxsining parchadan – butunlik sari qadam tashlashini xohlada-da, unda hech bir qahramonlar shu ikkala yosh uchun birgina Oypopukning dadasi kabi kuynmaydi. Bu ikki yosh o'zining taqdiriga chizgilar berolmaydi. Faqat sog'inch, qo'msash, eslash bilan chegaralangan muloqot shakllari qissa arxetipiga aniqlik

kiritganidan shahodat beradi. Masalan, mif bor joyda rivoyatning biz anglamagan sezimlari joriylanadi. Antik yunon adabiyotida ham ikkala yoshning tanishuv lahzasidan to fojeasiga qadar – qo‘rquv intinkit har bir voqelikni o‘z nazoratiga oladi. O‘.Umarbekov juda ko‘pchilik asarlarida – kuchli va ojiz qahramonlarning fojeaviyligini ixcham va o‘ziga xos tarzda chizib bera olish qobiliyati birlamchi ekanini tayin etadi. Negaki, qahramonlar soddalikdan – samimiy bir odamga, fojeaviylikdan qahramonga aylanishi shular jumlasidandir. Bu jarayon kelajakka ishonch tuyg‘usining tasdiq yoki inkor oralig‘idagi moditsikatsiyasini muvofiqlashtiradi.

M.Baxtin quyidagi mulohazasida shunday fikrlarni ilgari suradi: “Kelajakka daxldor shakllardan yana biri esxatologizm hisoblanadi. Bunda kelajak o‘zga tarzda so‘nadi. Bunda kelajak (o‘zining barcha o‘tgan va hozirgi shakllarida) xuddi barcha mavjudotning, butun borliqning intihosi deb tushuniladi. Bu o‘rinda qiyomatning halokat, vayronagarchilik, yangi xaos, ma‘budlar tonggi yoki sud kuni deya tushunilishining u qadar ahamiyati yo‘q. Muhimi borliq mavjudotning oxirati ekani va uning nisbatan yaqinligidir. Esxatologizm bu intihoni doimo shunday anglaydi. Ya‘ni hozirni intihodan ajratib turadigan kelajakning o‘sha parchasi o‘z qimmatini qizig‘ini yo‘qotadi: bu hozirning noaniqlik tomon besamar cho‘zilishidir”. Darhaqiqat, M.Baxtin o‘zining mazkur asarida – kelajakning normal talqinini ko‘rishga qodir inson ruhiyatiga chizgilar beradi. O‘ktam o‘zining xatti-harakatlari bilan normal hayot haqida jiddiy o‘ylaganida edi, boshqacha vaziyat ro‘y berardi. Deylik, Oypopukning bedavo kasalga yo‘liqqanini bilsa-da, uni sevishda davom etadi. Ko‘nglidagi pokiza muhabbat Oypopukning atigi yana bir kun yashashini xohlaganida seziladi. Deylik, Oypopuk shunday vaziyatda ham yashash umidini uzib bo‘lgandi. Uning olayotgan muolajasi – vafot etgan onasining diydori bilan o‘tishi ham qahramonning qaddini bukib qo‘yadi. O‘.Umarbekov asar qahramonarini jiddiy sinovlar bilan o‘z vaqtida imtihon qilib boradi:

“O‘sha kuni kechasi tush ko‘rdim. Ikki tomoni tog‘ bilan o‘ralgan ko‘m-ko‘k adir emish. Adirning o‘rtasiga qizil gilam to‘shalgan. U ning ustida men oq ot minib turgan emishman. Qayerdandir, olisdan qo‘shiq eshitilardi. So‘zlarini anglamasam ham, uning menga bag‘ishlanganini bilar emishman. Birdan osmonni qora bulut bosdi, momaqaldiraq guldirab chaqmoq chaqdi. Tagimdagi ot tipirchilab qochmoqchi bo‘ldi. Ammo men yuganidan mahkam ushlab, qadam bosgani qo‘ymadim. Hammayog‘im ivib ketdi, gilam qayoqqadir yo‘qoldi, qo‘shiq tindi. Hammayoqni mudhish sukunat qopladi. Ko‘zlarimni yumdim. Bir mahal bunday qarasam, havo ochilib ketibdi. Oldimda esa... oldimda katta qizil gilamni, xuddi boyagi ostimdagidek gilamni yozib, Oypopuk turibdi. Rostini aytsam, o‘sha kuni o‘zimning tushimdan o‘zim cho‘chib ketdim. Nega cho‘chidim, bilmayman. Biroq bir narsa ravshan edi. Men Oypopuk haqida ko‘p o‘ylaydigan bo‘lib qolgan edim. Bu sevgimi, yo shunchaki yigitlik sho‘xligimi, aniqlash qiyin edi o‘shanda. Sevgi desam, uning bunchalik tez paydo bo‘lishiga ishonmasdim. Sho‘xlik desam,

o‘zimni ixshi bilaman, sho‘xlikka tobim yo‘q edi. Lekin bordi-yu shunday bo‘lib qolsa, qizga xiyonat qilmaslik, uni hech parsaga ishontirmaslik lozim edi. Shunday xayollar bilan kun bo‘yi nasha chekkan odamday gangib yurdim. Qayerlarga bordim, nimalar qildim, kimlar bilan gaplashdim — yaxshi bilolmayman. Lekin olmazorga o‘tayotib, osma ko‘prikdan dumalab tushay deganim hali-hali ko‘z oldimda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D., Mamajanov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T: “Akademnashr”. 2013. –B.183.
2. Umarbekov O‘. Sevgim-sevgilim.- T: “Sharq”. 2005. –B.
3. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. –T.: “Sharq”. 2004. –B.59-60.
4. Quronov D. Nazariy qaydlar. –T: “Akademnashr”. 2018. –B.70.